

## ABU NASR FOROBIYNING PSIXOLOGIK QARASHLARI

Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li

GulDU doktoranti

[sobirravshanov3@gmail.com](mailto:sobirravshanov3@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning hayoti, ijodi, shaxs haqidagi psixologik qarashlari, O'zbekiston psixologiyasi rivojlanishiga qo'shgan hissasiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** psixologiya rivoji, ilmiy bilimlar, kishi ruhiyati, insonlar psixologiyasi, tarbiya, psixologik ilm.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda qator olimlar, mutafakkirlar yashab ijod etgan. Ular faqat dinga talluqli fanlardangina rivojlanib qolmasdan, ilm-fanning shunday sohaları: riyoziyot, falsafa, astranomiya, meditsina, pedagogika, anatomiya, etika-estetika va psixologiya fanlari bo'yicha butun jahon tan oladigan darajada ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarni faqat O'rta Osiyo kitobxonlari o'qib qolmasdan, balki butun jahondagi taraqqiyparvar mutafakkirlar ham o'quv risolasi sifatida foydalangan, ana shunday olimlardan biri Abu Nasr forobiydir (873-950).

Forobiy uning taxallusi bo'lib, to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon – jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari ("Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g'oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari ("Metafizika" – "Moba'diy tabiat")ni o'qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta'kidlaydi.

Farobiy yozgan asarlaridan bizning e'tiborimizga falsafa, pedagogika, psixologiya, etika-estetika bo'yicha asarlari qiziqtiradi. Farobiyning fikricha muhit

va tarbiyaning ta'sirida inson shaxsining axloqiy sifatlari shakllanadi. Axloq-tushunchasi Farobiy inson xarakteri bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi. Chunki harakterdagi har bir xislatlarni yaxshi tomonga qaratib o'zgartirish mumkin. Shunga asosan inson axloqini faqat yaxshi tomonga qaratib o'zgartirish mumkin. Uning fikricha inson shaxsining barkamol shakllanishi uchun 4 ta to'siq bor:

1. hurmatsizlik
2. ahloqsizlik
3. o'zgaruvchanlik
4. ikkilanish

Bundan tashqari Farobiy tarbiyaning qattiq va yumshoqligi haqida ham o'z fikrlarini bayon qiladi. Bu o'z navbatida tarbiya psixologiyasining asosiy g'oyasi va metodlaridan biri hisoblanadi. Uning fikricha shogirdga ta'lim-tarbiya berishda haddan tashqari qattiqqo'llik, ustozga nafrat xissini uyg'otadi. Uning ruhida o'z ustoziga nisbatan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Tarbiyadagi haddan tashqari yumshoqlik esa, shogirdga ustozga nisbatan mensimaslik hissini yuzaga ketiradi. U o'z ustozini aldashga va ustidan kulishga harakat qiladi, deb tushunadi. Farobiy psixologiya sohasida aniq bir asarlar yozmagan bo'lsa ham u Aflotun (Aristotel) psixologiyasining asoslarini mahalliy sharoitda moslashgan holda talqin qiladi va buning oqibatida O'rta Osiyo falsafiy qarashlariga xos bo'lgan psixologik dunyoqarashlar shakllandi.

Farobiyning ilm-fan sohasidagi qarashlari o'zidan keyin yashab o'tgan mutafakkirlar - Beruniy, Ibn Sinoga o'z ta'sirini o'tkazdi va o'z navbatida bu mutafakkirlar Farobiyning ustozlari deb hisoblashgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov X. Milliy va ijtimoiy ruhiyat. T.: Fan va texnologiya. 1992.
2. Nishonova Z. T. "Psixologiya tarixi" T -2002-y
3. "Ma'naviyat yulduzlari" (*Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999*)
4. Iskandarov B. "O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar" Toshkent. "O'zbekiston". -1993 .
5. Xayrullaev MM. "O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar". Toshkent -1995-y